

## Prezident Qozog'istonga jo'nab ketdi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan 12-oktabr kuni Ostona shahriga jo'nab ketdi.

Prezidentimiz u yerda Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha kengash hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlislarida ishtirok etadi. Ushbu sammitlar doirasida hamkor mamlakatlar delegatsiyalari rahbarlari bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazish ham rejalashtirilgan.

**Manba**